O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Baqlajonlarning savdoga chiqarilishi va tijorat sifatini nazorat qilish bo‘yicha standart

(FFV 05:2023, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #S5BF330Y20 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FFV-05:2023 **“**Standard for the marketing and commercial quality control of aubergines**”** xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #S5BF330Y20 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha Ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) huzuridagi Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha Ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga , yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, daromadlilikni oshirishga va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. UNECE standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, import qiluvchilar va eksport qiluvchilar, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadilar. Ushbu standartlar yangi meva va sabzavotlar, quritilgan va qoqi mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesma gullar, tuxum va tuxum mahsulotlari kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turlarini qamrab oladi.Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi ishchi guruh faoliyatida teng huquq asosida ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida qo‘shimcha ma’lumot olish uchun quyidagi veb-saytga murojaat qiling:

UNECE qishloq xo‘jaligi standartlari sahifasi

Mazkur qayta ko‘rib chiqilgan **“Baqlajon (Aubergines) standarti”** ishchi guruhning yetmish ikkinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan **ECE/CTCS/WP.7/2016/17** hujjati asosida tayyorlangan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #S5BF330Y20 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

BAQLAJONLARNING SAVDOGA CHIQARILISHI VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISH BO‘YICHA STANDART

СТАНДАРТ ПО РЕАЛИЗАЦИИ БАКЛАЖАНОВ И КОНТРОЛЮ ИХ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА

STANDARD FOR THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF AUBERGINES

Amalga kiritish sanasi **1.08.2026 y**

I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart iste’molchilarga yangi holda yetkazib berish uchun mo‘ljallangan, **Solanum melongena L.** turiga mansub navlardan (kultivarlardan) yetishtirilgan baqlajonlarga tatbiq etiladi. Sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan baqlajonlar mazkur standart doirasiga kirmaydi.

Shakliga ko‘ra baqlajonlar quyidagi turlarga ajratiladi:

cho‘zinchoq baqlajonlar (jumladan, to‘qmoqsimon, silindrsimon, ellipssimon va noksimon shakldagilar);

dumaloq baqlajonlar (jumladan, tuxumsimon shakldagilar).

II Sifatga oid talablar

Ushbu standartning maqsadi baqlajonlarni tayyorlash va qadoqlash ishlari tugallanganidan keyingi sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, eksport qilish/jo‘natish bosqichidan keyin standart qo‘llanilganda mahsulotlarda quyidagilar kuzatilishi mumkin:

- o‘zining yangiligini va tarangligini yo‘qotishi;
- “Ekstra” navdan tashqari boshqa navlarga kiruvchi mahsulotlarda ularning rivojlanishi va tez buzilish xususiyati tufayli sifatning ozgina pasayishi.

Mahsulot egasi (sotuvchisi) ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlarni namoyish qilish, sotuvga taklif qilish, yetkazib berish yoki boshqa har qanday usulda muomalaga chiqarish huquqiga ega emas. Mahsulot egasi (sotuvchisi) ushbu talablarga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

A Minimal talablar

Har bir nav uchun belgilangan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chetlanishlarni hisobga olgan holda, barcha navdagi baqlajonlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- butun bo‘lishi;
- sog‘lom bo‘lishi; chirigan yoki iste’mol qilish uchun yaroqsiz holga keltiruvchi darajada buzilgan mahsulotlarga yo‘l qo‘yilmaydi;
- toza bo‘lishi, ko‘zga ko‘rinadigan har qanday begona aralashmalardan amalda xoli bo‘lishi;
- zararkunanda hasharotlardan amalda xoli bo‘lishi;
- etiga ta’sir qilgan zararkunanda hasharotlar yetkazgan shikastlardan xoli bo‘lishi;
- tashqi ko‘rinishi yangi bo‘lishi;

STANDARTLAR INSTITUTI #S5BF330Y20 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- qattiq va mustahkam bo‘lishi;
- yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi, eti tolali yoki yog‘ochsimon bo‘lmasligi va urug‘lari haddan tashqari rivojlanmagan bo‘lishi;
- kosachabargi va meva bandi bilan birga bo‘lishi, bunda ular biroz shikastlangan bo‘lishi mumkin;
- tashqi yuzasida g‘ayritabiiy namlik bo‘lmasligi;
- har qanday begona hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi.

Baqlajonlarning rivojlanganlik darajasi va holati shunday bo‘lishi kerakki, ular:

- tashish va yuklash-tushirish jarayonlariga chidamli bo‘lishi;
- belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi lozim.

B Tasniflash

Baqlajonlar quyida belgilangan uch naviga ajratiladi:

(i) “Ekstra” nav

Ushbu navdagi baqlajonlar eng yuqori sifatli bo‘lishi kerak. Ular nav va/yoki tijorat turining o‘ziga xos xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim.

Ular qattiq va mustahkam bo‘lishi kerak. Mevabandi butun bo‘lishi, eti esa mutlaqo sog‘lom bo‘lishi lozim.

Baqlajonlar nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak, bundan mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanish xususiyatlariga va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir ko‘rsatmaydigan juda kichik tashqi nuqsonlar mustasno:

(ii) I nav

Ushbu Navdagi baqlajonlar yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. Ular naviga va (yoki) tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Shuningdek, ular amalda quyosh kuydirgan izlardan xoli bo‘lishi kerak.

Mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanish xususiyatlariga va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir etmagan taqdirda, quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi:

- shakldagi kichik nuqsonlar;
- rangdagi kichik nuqsonlar, biroq binafsha navlarda yashil tus bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi;
- po‘stdagi kichik nuqsonlar, jumladan, yengil ezilish va/yoki yengil bitgan yoriqlar, agar ularning umumiy maydoni **3 sm² dan oshmasa**.

(iii) II nav

Ushbu navga yuqori navlar talablariga javob bermaydigan, ammo yuqorida belgilangan minimal talablarga muvofiq keladigan baqlajonlar kiritiladi.

Agar baqlajonlar sifat, saqlanish xususiyatlari va tashqi taqdimot bo‘yicha asosiy xususiyatlarini saqlab qolsa, quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi:

- shakl nuqsonlari;
- rang nuqsonlari, biroq binafsha navlarda yashil tus bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi;
- po‘st nuqsonlari, jumladan, yengil ezilish, yengil bitgan yoriqlar va/yoki yengil quyosh kuydirgan izlar, agar ularning umumiy maydoni **4 sm² dan oshmasa**.

III O‘lchamga oid talablar

O‘lcham quyidagi mezonlardan biri asosida belgilanadi:

- mevaning bo‘ylama o‘qi bo‘ylab ekvatorial kesimining eng katta diametri;
- og‘irligi bo‘yicha;

STANDARTLAR INSTITUTI #S5BF330Y20 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- dona soni bo‘yicha.

O‘lchamning bir xilligini ta’minlash maqsadida, bir xil qadoqdagi mahsulotlar o‘rtasidagi o‘lcham farqi quyidagi ko‘rsatkichlardan oshmasligi lozim:

(a) Diametri bo‘yicha o‘lchamlanganda:

- cho‘zinchoq baqlajonlar uchun – **20 mm**.
- dumaloq baqlajonlar uchun – **25 mm**.

(b) Og‘irligi bo‘yicha o‘lchamlanganda

- **20–50 g** og‘irlikdagi baqlajonlar uchun – **10 g**;
- **50–100 g** og‘irlikdagi baqlajonlar uchun – **20 g**;
- **100–300 g** og‘irlikdagi baqlajonlar uchun – **75 g**;
- **300–500 g** og‘irlikdagi baqlajonlar uchun – **100 g**;
- **500 g dan ortiq** og‘irlikdagi baqlajonlar uchun – **250 g**.

(c) Dona soni bo‘yicha o‘lchamlanganda

- O‘lchamdagi farq (a) yoki (b) bandida belgilangan talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

“Ekstra” nav va **I nav uchun** o‘lchamning bir xil bo‘lishi zarur hisoblanadi**.**

IV Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Savdoning barcha bosqichlarida har bir partiya uchun belgilangan nav talablariga javob bermaydigan mahsulotlarga nisbatan sifat va o‘lcham bo‘yicha ma’lum darajadagi chetlanishlarga yo‘l qo‘yiladi.[1]

A Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

“Ekstra” nav

Soni yoki vazni bo‘yicha hisoblanganda, ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroq I-nav talablariga javob beradigan baqlajonlarning umumiy miqdori 5 % gacha bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu yo‘l qo‘yiladigan chetlanish doirasida II-nav sifat talablariga javob beradigan mahsulotlarning umumiy ulushi soni yoki vazni bo‘yicha 0,5 % dan oshmasligi kerak.

(ii) I-nav

Soni yoki vazni bo‘yicha hisoblanganda, ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroq II-nav talablariga javob beradigan baqlajonlarning umumiy miqdori 10 % gacha bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu yo‘l qo‘yiladigan chetlanish doirasida II-nav sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yoki chirigan mahsulotlarning umumiy ulushi soni yoki vazni bo‘yicha 1 % dan oshmasligi kerak.

(iii) II-nav

Soni yoki vazni bo‘yicha hisoblaganda, ushbu nav talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan baqlajonlarning umumiy ulushi **10 %** gacha bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

*Izoh: Ushbu ruxsat etilgan miqdor ichida umumiy hisobda **2 foizdan ko‘pi** chirigan mahsulotlardan iborat bo‘lmasligi lozim.*

STANDARTLAR INSTITUTI #S5BF330Y20 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

B O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

Barcha navlar uchun (agar mahsulot o‘lchamlarga ajratilgan bo‘lsa), soni yoki vaznii bo‘yicha umumiy hisobda belgilangan o‘lcham talablariga javob bermaydigan baqlajonlar uchun **10 %** gacha ruxsat etiladi.

*1Izoh :*Muvofiqlikni tekshirish birlamchi yoki jamlanma (kompozit) namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Tekshirish tasodifiy tanlab olingan namunalar sifati butun partiya sifatini ifodalaydi, degan taxminga asoslanadi. Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha IHTT (OECD) ning amaliy qoidalarini jo‘natish bosqichlarida, shuningdek ulgurji savdo va taqsimlash markazlarida hamda oziq-ovqat chakana savdo korxonalarining omborlarida, shu jumladan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ham qo‘llash tavsiya etiladi.

V. Taqdim etishga doir qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqdagi mahsulot bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqishga, navga yoki tijorat navga, sifatga, o‘lchamga (agar o‘lchamlarga ajratilgan bo‘lsa), shuningdek rivojlanish va ranglanish darajasi deyarli bir xil bo‘lgan baqlajonlardan iborat bo‘lishi kerak.

Biroq, bir qadoqqa tijorat turlari va/yoki ranglari bir-biridan aniq farq qiladigan baqlajonlar aralashmasini joylashtirishga ruxsat etiladi, bunda ular sifat jihatidan bir xil bo‘lishi hamda har bir tijorat nav va/yoki rang bo‘yicha bir xil kelib chiqishga ega bo‘lishi lozim. Bunday aralashmalar uchun o‘lcham bo‘yicha bir xillik talabi qo‘llanilmaydi. Qadoq ichidagi mahsulotning ko‘rinib turgan qismi qadoqning butun tarkibini ifodalashi kerak.

B. Qadoqlash

Baqlajonlar mahsulotning tegishli darajada saqlanishini ta’minlaydigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza bo‘lishi hamda mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazmaydigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Savdo tavsiflari tushirilgan materiallardan, xususan qog‘oz yoki tamg‘alardan foydalanishga, bosma yozuvlar yoki yorliqlar zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida tayyorlangan bo‘lishi sharti bilan, ruxsat etiladi.

Mahsulotning har bir donasiga alohida yopishtiriladigan stikerlar shunday bo‘lishi kerakki, ular olib tashlanganda ko‘rinadigan yelim izlarini qoldirmasin hamda po‘stlog‘ida nuqsonlar hosil qilmasin. Har bir mevaga lazer yordamida tushirilgan axborot ham etida yoki po‘stlog‘ida nuqsonlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmasligi kerak.

Qadoqlar har qanday begona aralashmalardan xoli bo‘lishi kerak.

VI. Tamg‘alashga doir talablar

Har bir qadoqda[2] quyidagi ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan holda, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan tarzda yozilgan hamda qadoqning tashqi tomonidan ko‘rinadigan bo‘lishi kerak.

A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchi:

Nomlanishi va jismoniy manzili (masalan: ko‘cha nomi, shahar, hudud, pochta indeksi hamda agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa — mamlakat nomi) yoki bunday tizimdan foydalanayotgan mamlakat **UNECE kod belgilari reyestri**[4]da keltirilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi[3].

Agar ko‘cha manzili mavjud bo‘lmasa, jismoniy manzil sifatida xo‘jalik yoki obyekt nomi, unga eng yaqin qishloq, shahar, viloyat (hudud) va pochta indeksidan foydalanish mumkin. Shuningdek, GPS koordinatalari hamda pochta qutisi (P.O. Box) manzili, unga eng yaqin shahar,

STANDARTLAR INSTITUTI #S5BF330Y20 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

viloyat (hudud) va mamlakat nomi bilan birgalikda ko‘rsatilgan taqdirda, jismoniy manzil sifatida qabul qilinadi.

2Izoh Ushbu tamg‘alash talablari ushbu ma’lumotlar ko‘rsatilgan tashqi qadoq ichida joylashtirilgan iste’mol qadoqlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq, alohida taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga (oldindan qadoqlangan mahsulotlarga) nisbatan ushbu talablar qo‘llaniladi.

3Izoh Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligiga muvofiq qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchining nomi hamda manzili aniq ko‘rsatilishi zarur hisoblanadi. Biroq, kod belgisidan foydalanilgan hollarda, kod belgisi yonida «qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi» (yoki shunga tenglashtirilgan qisqartma) ko‘rsatilishi kerak. Agar tan oluvchi mamlakat mahsulotning kelib chiqqan mamlakati bo‘lmasa, kod belgisidan oldin ushbu mamlakatning ISO 3166 (alpha-2) standartiga muvofiq ikki harfli mamlakat (hudud) kodi yozilishi lozim.

4Izoh Qarang: UNECE Kod belgilari reyestri.

5Izoh Amerika Qo‘shma Shtatlarining P.O. Box (pochta qutisi) manzilidan foydalanishga nisbatan izohi: bunday manzil ishlab chiqarish yoki qadoqlash obyektini tekshirishni yoki mahsulotni qaytarib olish (recall) zarur bo‘lgan hollarda tezkor choralar ko‘rishni ta’minlamasligi mumkin. Shu sababli u AQShning qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchiga oid milliy markirovkalash talablari tarkibiga kiritilmagan.

B. Mahsulotning nomi

- Agar qadoq ichidagi mahsulot tashqaridan ko‘rinmasa, «Baqlajonlar» degan nom ko‘rsatilishi kerak.
- Nav nomi (ixtiyoriy).
- Tijorat navlari va/yoki ranglari bir-biridan aniq farq qiladigan baqlajonlar aralashmasi qadoqlangan bo‘lsa, «Baqlajonlar aralashmasi» yoki shunga teng mazmundagi nom ko‘rsatilishi kerak. Agar mahsulot qadoqning tashqi tomonidan ko‘rinmasa, qadoqda har bir tijorat turi va/yoki rang, shuningdek ularning har birining miqdori ko‘rsatilishi lozim.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

- Kelib chiqqan mamlakat[6], shuningdek (ixtiyoriy ravishda) mahsulot yetishtirilgan tuman (hudud) yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy joy nomi ko‘rsatilishi kerak.
- Agar qadoqda kelib chiqishi turli mamlakatlardan bo‘lgan, tijorat turlari va/yoki ranglari bir-biridan aniq farq qiladigan baqlajonlar aralashmasi mavjud bo‘lsa, har bir kelib chiqqan mamlakat nomi tegishli tijorat turi va/yoki rang nomining bevosita yonida ko‘rsatilishi kerak.

D. Tijorat tavsiflari

- Navi.
- O‘lchami (agar o‘lchamlarga ajratilgan bo‘lsa) quyidagicha ko‘rsatiladi:
- diametri bo‘yicha saralangan bo‘lsa — eng kichik va eng katta diametri;
- vazni bo‘yicha saralangan bo‘lsa — eng kam va eng ko‘p vazni.
- dona soni bo‘yicha saralangan bo‘lsa — dona soni, shuningdek eng kichik va eng katta diametri yoki eng kam va eng ko‘p vazni ko‘rsatiladi.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

Qabul qilingan: 1970-yil

So‘nggi tahrir: 2016-yil

Standart namunaviy shaklga muvofiqlashtirilgan: 2023-yil.

[6] Kelib chiqqan mamlakatning to‘liq nomi yoki keng qo‘llaniladigan nomi ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #S5BF330Y20 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ma’lumot uchun ilova – Baqlajonlarning shakllari

To‘qmoqsimon




Silindr shaklidagi




Ellipsoid shaklli





Nok shaklidagi



Bibliografik ma’lumotlar

SMT 67.080.20

STANDARTLAR INSTITUTI #S5BF330Y20 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI